

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHDA QOIDALI O'YINLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMI.

Xoshimjonova Nilufarxon Xusanboy qizi

“Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim” fakulteti

Maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabasi

Har bir xalqda asrlar davomida kattalarning bolalar uchun yaratgan o`ynlari va bolalarning o`zlari yaratgan ba`zi o`ynlari mavjud. Har qaysisi ham avloddan avlodga o`tib kelgan va xalq og`zaki ijodining o`ziga xos shakliga aylangan. Qoidali o`yinlar MTTda talim-tarbiya vositasi sifatida keng qo`llaniladi. Qoidali o`yin talim bilan bevosita bogliqdir. Didaktik o`yinlarning muhim elementi qoidalar hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o`yin mazmunini amalga oshirishni ta`minlaydi. Didaktik o`yin ta`lim bilan bevosita bog`liq bo`lib, unga yordam beradi.

Didaktik o`yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta`lim berish metodidir. Tajribali tarbiyachi bu o`yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo`rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik o`yinni amalga oshirishda har doim g`oyaviylik printsipligiga asoslanish kerak. Didaktik o`yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustaxkamlashga yordam beradi, o`z shaxsiy tajribalari va mashg`ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo`llay olishga o`rganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarni tartibga soladi. Didaktik o`yinlar ta`lim jarayonini engilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o`yinda amalga oshiraladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o`zlashtiradilar.

Har bir didaktik o`yinda o`yin mazmuni, g`oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo`ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat o`ynalishini yoki o`yining borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini, o`zaro bir-biriga bo`lgan munosabatini boshqarib, kerak tomonga yo`naltirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi o`lchovdir.

Didaktik o'yinda amal qilinadigan qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri noto'g'riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi. Bolalarning biror bolaga nisbatan "U o'yin qoidasini bo'zib o'ynayapti" deyishlarining o'zi ularning o'yin qoidalariga qandaydir o'zgartirib bo'lmaydigan qonundek munosabatda bo'lishlarini ko'rsatadi.

Bolalarning o'yin qoidalarini o'rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o'yin jarayonida o'zini-o'zi, o'zaro bir-birini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi.

O'yin qatnashchilarini rag'batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganlari uchun etakchi rolni berish, ba'zan esa Shu o'yinda foydalanilgan o'yinchoqni o'ynashga berish yoki mevalarni eyishga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofatlarni olaman deb har qanday yo'l bilan bu ishga intilishlariga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'yin harakatli bolalar tomonidan bajariladi. O'yin harakatlari xilma-xil ishlarda: narsalarning joyini almashtirish, yig'ishtirish, ularning rangiga, katta kichikligiga, shakliga qarab bir-biridan ajratish, tanqidiy harakatlar va hokozolarda nomoyon bo'ladi. Katta bolalarning o'yin harakatlari esa murakkabroqdir: bu o'yin harakatlari bir guruh bolalar harakati bilan boshqa guruh bolalari harakati o'rtasida o'zaro bog'lanish bo'lishini, harakatlarning izchillik va navbati bilan amalga oshirilishini talab etadi.

O'yin natijasi didaktik o'yining muayyan natijasi bo'ladi, natija esa o'yinning finali hisoblanadi. Masalan. Topishmoqlarni topish, berilgan o'yin topshiriqlarini bajarish, fahm-farosatni nomoyon qilish kabilar o'yin natijasi bo'lib, ularni bolalar erishilgan muvaffaqiyat deb tushunadilar.

O'yin mazmuni, g'oyasi, harakatlari va qoidalari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lib, xatto ulardan birortasi bo'lmasa ham o'yinni o'tkazib bo'lmaydi.

Didaktik o'yining o'yin faoliyati sifatidagi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlari o'yin tarzida bo'ladi. Tarbiyachi o'yin qatnashchisi yoki uning tashkilotchisi bo'ladi. Bolalar ko'pincha o'yin mazmuni bilan

belgilanadigan va o'yin harakatlari talab etadigan biron-bir rolni bajaradilar. O'yin kuzatuvchanlikni mashq qilish, nutqni ravon qilish uchun xizmat qiladi. O'yin harakatlarini kuzatishdan, buyumni har tomonlama ko'rib chiqish, uni tasvirlash va boshqa buyumlar bilan taqqoslashdan iborat. O'yin qoidalari haridorning oladigan narsasini tanlab olish, sotuvchiga xushmuomila bo'lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko'rib chiqish va v boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytish va pul to'lashidan: sotuvchilarning vazifasi esa haridorlar gapirganda ularni zo'r e'tibor bilan tinglash, so'zlarini bo'lmaslik, so'ragan buyumlarni olib, qog'ozga o'rab berishdan iborat bo'ladi.

Ko'pincha didaktik o'yinlar bolalarning bilimiga biron-bir yangilik kiritmaydi, ammo ularni o'z bilimlarini yangi sharoitda ishlata bilishga o'rgatadi yoki ular kichkintoylardan aqliy faoliyatning turli-tuman shakllarini nomoyon qilishga talab etadi. Masalan, "Ajoyib xaltacha" o'yinida bolalar o'zlariga tanish bo'lgan o'yinchoqni tasvirlab berish vazifasi yuklatiladi, buning uchun esa bola o'yinchoqni boshdan – oyoq yaxshilab ko'zdan kechirish va uning o'ziga xos begilarini eslab qolishi kerak bo'ladi.

Didaktik o'yinlar ularning ta'lim tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turli bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotisining ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhlar ajratib berilgan. Dasturda har bir yosh guruhning o'ziga xos ruhiy fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda didaktik o'yinning tutgan o'rni va vazifasi, mazmuni, o'tkazish uslublari belgilab berilgan. Masalan, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlardan asosiy maqsad- bolalarni ranglarni bir biridan farqlash va nomini aytishga o'rgatish, har xil o'lchamlar (katta, kichik), shakllarni (sharcha, kubcha), bilishga, ko'rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda harakatlarni o'stirishga yordam beradi. Ikkinchi kichik guruhda didaktik o'yinlar quydagi maqsadlarda o'tkaziladi: bolalarda didaktik o'yinchoqlar bilan yakkama yakkaga o'ynash ko'nikmasini rivojlantirish, jamoa o'yinlari tashkil etish; narsalarni faqat bir rangga qarab ajratib olish, katta kichikligiga qarab farqlash; xalqachalari va kubchalarni muntazaam shaklda terib, ulardan minorachalar yasash; tanish buyumlar tasvirlangan ikki, to'rt burchaqli, olti burchaqli

kesma rasmlardan “Idish tovoqlarimiz”, “O’yinchoqlar” kabilarning tasvirini yig’ish; narsalarni farqlash va nomini to’g’ri aytishga o’rgatish va hokazo. Musiqaviy – didaktik o’yinlarda esa musiqa ovozlarning ba’zi bir xususiyatlarini farq qilishga o’rgatish, qadam va yugurish ritmi (“Kim kelayotir”, “Sichqonlar yugurishayotir”) ovoz va cholg’u asboblari tembrlarini (“Musiqaviy o’yinchoqni o’ylab top”, “Ovozidan bilib ol” ajrata bilishga o’rgatish vazifalari ham xal etiladi.

O’rta guruhda didaktik o’yinlar orqali bolalar eshitish, ko’rish, sezish a’zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materialning xossalarini bilib olish, narsalarni tashqi ko’rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlarga ajratishni o’rgatish vazifalari amalga oshiriladi.

Katta guruhda didaktik o’yinlar quydagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo’yadi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, bir biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, materallarni seza bilish, narsalarning joylanishidagi o’zgarishlarni) aytib bera olish kabi sessor qobilyatlarni tarbiyalash; biron xayvon, o’simlik, trasport tarif-tavsif qilib berilganda, ularning nomini topa bilish malakasini o’stirish, bolalarning umumiy tasavvurini, buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlarga bo’lish qobilyatini rivojlantirish, so’z faolligini faollashtirish va to’ldirish; qisimlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar) yasash malakasini o’stirish.

Musiqaviy didaktik-o’yinlar orqali tovushlarni bir biridan farq qilishni o’rgatish, ritmik usulni ajrata olish, aShulalar va cholg’u asboblari ovozining tembrini farq qilish (“Kim kuylayapti?” “Shiqildoqli childirma”), ovozning dinamikasini ajrata olish (“tez, sekin kuylaymiz”) uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Maktabga tayorlov guruhda didaktik o’yinlar hamma yosh guruhlari kabi alohida o’rin tutuadi va bu guruhda didaktik o’yinlar orqali quydagi ta’lim – tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda didaktik o’yinlarga qiziqish uyg’otish, har bir narsani bilishga xavas, kuzatuvchanlik, diqqat-etibor, ziyraqlik, aqliy vazifalarni mustaqil xal qilish

malakasini tarbiyalash. Ularga narsalarni turkumlarga bo'lishda yordamlashuvchi o'yinlarni, domino, mozaikaning har xil turlarini, shashka, jumboq o'yinlar, og'zaki o'yinlar ("Dengiz to'lqillanmoqda", "Qora va oq"), ranglarni va ulardagi nozik ayirmalarni bir-biridan farqlashni o'rgatadigan o'yinlar o'tkaziladi.

Didaktik o'yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, o'rmonda, dalada va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yining ta'sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi. Shunday qilib, didaktik o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish vositasi bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kayumova N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik 2013 y.
2. Каюмова Н.М., & Якубова.З.З.(2021). Дошкольное образование как способ формирования образованной и воспитанной личности.
3. In Современная наука XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp92-95).
4. Kayumova, N. M. (2013). Maktabgacha pedagogika. *O' quv Qo' llanma*.
5. Каюмова, Н. М. (2022, November). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организации. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 102-107).
6. Qodirova, F. R., Toshpulatova, S. Q., Kayumova, N. M., & A'zamova, M. N. (2018). *Preschool pedagogy. Textbook) Tashkent-2018*.
7. Kayumova, N. M., & Ro'ziyeva, M. M. Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o'rni. *Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning roli" mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari*, 102-104.
8. Каюмова, Н. М., & Базарбаева, З. О. (2023, October). РЕЧЬ ДЕТЕЙ КАК ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In *INTERNATIONAL*

SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 8, pp. 68-73).

9. Kayumova, N. M. (2023). EDUCATING CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND IN THE FAMILY. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 1(6), 33-38.

10. Kayumova, N. M., & Turg'unova, M. R. (2023, January). "ILK QADAM" DAVLAT O 'QUV DASTURI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 609-612).

11. Kayumova, N. M., & Turg'unova, M. R. (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIMNI SIFAT JIHATDAN TAKOMILLASHTIRISHDA TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 605-608).

12. Kayumova, N. M., & Murodxo'jaeva, Z. M. (2023, January). TARBIYACHINING FAOLIYALARNI TASHKIL ETILISH JARAYONIDAGI IJODKORLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 601-604).

13. Kayumova, N. M. (2019). PECULIARITIES OF TEACHING ENGLISH IN ESP CLASSES. *MODERN SCIENTIFIC RESEARCH*, 128.

14. Каюмова, Н. М., & Пирмухамедова, М. Э. (2019). Руководитель дошкольной образовательной организации и его функциональные обязанности. *Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации*, 42.

15. Каюмова, Н. М. (2024). АНДРАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПЕДАГОГОВ ДОО С СЕМЬЯМИ И МЕСТНЫМ СООБЩЕСТВОМ. *World of Scientific news in Science*, 2(2), 27-36.